

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SPORT SOHASIDAGI TERMINLARNING QIYOSIY TAHLILI

O‘g‘iloy To‘rayeva Quvondiq qizi

Tarjimonlik fakulteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston, Toshkent

**Annotatsiya:** Sport bugungi kunda mamlakat taraqqiyotini belgilovchi hamda uni jahon reytingida yetakchi o‘rinlarni egallashini ta‘minlovchi muhim soha hisoblanadi. Ota-bobolarimiz qadimdan kurash, olimpiada o‘yinlari, qo‘l bilan mushtlashuv va shu kabi qator sport turlari bilan shug‘ullanib kelishgan. Shu sababli tilimizda aynan shu sport turiga oid bir qancha terminlar paydo bo‘lgan. Mazkur maqolada sportga oid bo‘lgan bir qator terminlar ingliz va o‘zbek tillarida qiyoslangan va tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Sport terminologiyasi, avtobus, banka, pugilizm, futbol, boks, lug‘at, termin.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, hech bir soha davlatni sportchalik tez dunyoga tanitilmaydi. Shuningdek, sport inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, o‘g‘il bolalarga ham, qizlarga ham juda yoshligidanoq sport bilan shug‘ullanish tavsiya etiladi. Chunki jismoniy tarbiya va sport shijoat va nekinlik baxsh etadi, immunitetni mustahkamlaydi va shu orqali insonni turli kasalliklardan himoya qiladi. Ma‘lumki, ingliz tili hozirda dunyoning asosiy muloqot tili hisoblanadi. Tabiiyki, ingliz tili o‘z lug‘atiga yangi so‘zlarni qo‘shish natijasida rivojlanmoqda. Ingliz tilining o‘zbek tiliga ta‘siri juda katta, buni asosan, ilm-fan, texnologiya va sportning turli sohalarida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o‘zbek tiliga asosan rus tili orqali o‘zlashgan bo‘lsa, hozirda bevosita chet tillaridan o‘zlashmoqda. Shunday ekan har qaysi til lug‘at tarkibining asosini turli xil o‘zlashgan so‘zlar va terminlar tashkil qiladi. Terminlarni o‘rganish va ularni tahlil qilishdan asosiy maqsad bu xorijiy tillardan kirib kelayotgan so‘zlarni ona tilimizga aynan mos tushadigan so‘zlarga almashtirish hamda tarjima qilishdir.

Termin lotincha "terminus" – chek, chegara belgisi kabi ma‘nolarga ega bo‘lib fan-texnika va boshqa sohaga oid narsa haqida tushunchani aniq ifodalaydigan ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi. Terminologiya umumxalq tilining umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi. U o‘z navbatida tilning boyishiga xizmat qiladi. Shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, sport terminologiyasida ham chet tillarining, ayniqsa ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar talaygina. Sport terminologiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, u jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, texnik va o‘quv fanlari bo‘yicha ko‘plab tushunchalarni o‘z ichiga oladi, ixtisoslashgan adabiyotlarda va kasbiy aloqada keng qo‘llaniladi.

Sport terminologiyasi eng faol va tez-tez ishlatiladigan terminologiyalardan biridir. Bu sohadagi terminologiya maxsus sport adabiyotlarida ham, ixtisoslashtirilgan eshittirishlarda ham, asosan, metaforik ma‘noda keng qo‘llaniladi. Sport terminologiyasi turli xil bilim sohalaridagi ko‘plab tushunchalarni o‘z ichiga oladi, tibbiyot, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va boshqalar tegishli ishlov berishni talab qiladi. Bu bizga sport terminologiyasiga tarmoqlar aralashuvining chuqur jarayonlari haqida gapirishga imkon beradi. Diaxronik aspektida sport atamaları bo‘lgan so‘z iboralarning tarqalishi bir xil darajada katta. Ulardan

ba'zilar bugungi kunda paydo bo'ladi (fitnes cheerleading), boshqalari o'rta asrlardan (qilichbozlik) yoki antik davrdan (shaxmat) kelib chiqqan.

Zamonaviy o'zbek tilida qo'shimchalar lug'atni to'ldirishning juda samarali vositasidir. Bu sport terminologiyasi sohasiga ham tegishlidir. Turli xil qo'shimchalar orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: -chi, -do'stona, -lik, -bon (football player-himoyachi, goalkeeper-darvozabon). Misol uchun, boks qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgani uchun bu sport turining ilk terminlari yunon-lotin tilida o'z aksini topgan. "Pugilizm" ya'ni "mushtli jang" boks ma'nosini anglatib, lotinchada "Pugnu" musht demakdir. E'tiborlisi shundaki, "pugie" so'zi lotincha asosga borib taqalgan holda, ingliz tilida pugilist-bokschi, pugilizm esa boks sport turi ma'nosida saqlanib qolgan. Ehtimol, bunga sabab lotin tilining barcha hind-yevropa tillariga bobotil sifatida qaralishidir. Boksning lug'atida ham terminologik, ham xalqaro munosabatlar mavjud bo'lganligi sababli ingliz va o'zbek tillaridagi ushbu boksning maxsus tilida yaxlit terminologik umumiylik mavjud. Boks terminologik tizimini derivatsiya jihatidan tahlil qilish uchun va guruhlash uchun bir qancha atamalar ko'rib chiqilgan bo'lib ularga leksik-semantik, sintaktik atamalar va terminologik qarz olish kiradi.

Futbol olamida uchrab turadigan "xavbek", "kaner" hamda "vinger" kabi iboralarni kimningdir ko'magisiz fahmlay olamiz. Lekin zamona mayli bilan paydo bo'layotgan shunday xorijiy terminlar borki, ularning mag'zini chaqish unchalik oson emas. Misol uchun, avtobus faqat himoyaga mo'ljallangan taktika hisoblanadi. Futbol tarixida bu ibora ilk bor 2004-yil Joze Mouriy tomonidan himoya taktikasini izohlashda foydalanilgan. Joze Mouriy Angliyaga ko'chib o'tganidan keyin "avtobus" mashhur bo'lib ketdi. "Chelsi"-"Tottenxem" bellashuvidan keyin "Benazir" shunday degandi: "Tottenxem" o'zi bilan "avtobus" olib keldi va uni darvozaga tiqib qo'ydi. Bu kabi iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Banka-zaxira o'rindig'i. Bu termin dengizchilar tomonidan futbolga kirib kelganligining ehtimoli yuqori. Ular millionlar o'yinining asosiy targ'ibotchilari bo'lishgan va suv yo'llari orqali sayyoramizga tarqatishgan. Banka-dengizchilarning qayig'ida o'rindiq vazifasini bajargan taxta.

Xulosa qilganda, sport olamini butun jahon tillari orqali kirib kelgan terminlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu o'rinda ingliz tilining ahamiyati juda muhim o'rin tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- |  |                    |               |          |                   |         |
|--|--------------------|---------------|----------|-------------------|---------|
| 1. O'zbek  | tilining           | izohli        | lug'at.5 | jildli,           | 2-jild. |
| 2. Avakova   | A.S. Naimenovaniya | sportsmenov   | va       | russkom           | yazike. |
| 3. Danilenko                                       | V.P. Russkaya      | terminologiya | opit     | lingv. opisaniya. |         |
| 4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020-B.379. |                    |               |          |                   |         |